

# Har tuning qadr o'tubon, har kuning o'tsin Navro'z!

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 21-mart, juma,  
35 (24.061)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Har  
ko'katning  
o'z suygan  
tuproq'i bor

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [https://www.facebook.com/zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews_uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## Kengash huzurida yoshlar maslahat guruhi tuzildi

**20-mart kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining to'qqizinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiyani Kengash raisi Sh.Negmatov boshqardi.**

Dastlab viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i S.Sattorov viloyatda 2024-yilda davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyati hamda huquqni qo'llash amaliyoti, huquqiy targ'ibot va ma'rifatning holati to'g'risida axborot berdi.

Qayd etilishicha, o'tgan yil viloyat adliya boshqarmasi va tuman (shahar) adliya bo'limlariga mahalliy davlat hokimiyati organlarining 194 ta normativ-huquqiy tushgan bo'lib, ularning 163 tasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan holda xulosalar berilgan. 31 ta qaror loyihasi belgilangan talablarga rioya qilinmay taqdim qilinganligi sababli qaytarilgan. 2023-yilda mahalliy hokimliklar tomonidan "E-qaror" elektron tizimi orqali qarorlar qabul qilinishida 726 ta qonunbuzilishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, adliya organlari tomonidan mas'ul xodimlarning malakasi oshirilib borilishi natijasi 2024-yilda bu raqam qariyb 4 baravarga kamayib, 169 tani tashkil etdi.

Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan viloyatdagi 2000 dan ortiq tashkilot va muassasaga xizmat ko'rsatilib, 637 ming 838 ta hujjat loyihasi huquqiy ekspertiza qilingan va ularning 579 mingdan ortig'iga ijobiy xulosa berilgan. Qonunchilikka zid bo'lgan loyihalar esa qaytarilgan.

Huquqni qo'llash sohasida 944 ta davlat organlari va tashkilotlarida 915 marta nazorat tadbirlari o'tkazilib, 136 mingdan ortiq qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlangan. Mazkur holatlarni bartaraf qilish yuzasidan 1465 ta taqdimnoma, 108 ta ogohnoma, ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan 1635 ta va jinoyi javobgarlikka tortish yuzasidan 9 ta taklif, shuningdek, sudlarga 933 ta ariza kiritilgan.

Sessiyada Samarqand shahridagi Imom Moturidiy majmuasini rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va infratuzilmani yaxshilash orqali yirik ziyorat markazini barpo etish maqsadida hududdagi 220 ta hamda Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasidagi Mahdumi A'zam majmuasida rekon-

struksiya ishlari olib borilishi munosabati bilan 5 ta turar va noturar joy obyektlari yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish yuzasidan taqdimot ma'qulandi.

Viloyat hokimi o'rinborsari A.Shukurov mazkur obyektlar mulkdorlari bilan ochiq muhokama o'tkazilib, ularning roziligi asosida yer uchastkalari olinishini ma'lum qildi.

Shuningdek, Samarqand shahridagi temiryo'l orti qismida joylashgan, shahar va Samarqand tumani hududiga kiruvchi 3 mingga yaqin ma'nalan eskirgan uy-joylar o'rnida renovatsiya loyihasi asosida 100 ming aholi uchun ko'p xonadonli uy-joylar quriladigan hudud chegarasi belgilandi.

Deputatlar geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasi yig'ilishi bayoni hamda Kadastr agentligining ekspertiza xulosasi asosida Oqdaryo tumanidagi Turon aholi punkti nomini shu hududning tarixiy nomi – "Arpaariq" deb o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qildilar.

Shundan so'ng xalq deputatlari viloyat Kengashi huzurida yoshlar maslahat guruhini tashkil qilish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbus hamda Oliy Majlis Senatining tegishli qarori asosida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarning ijtimoiy siyosiy faolligini buzilish holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlangan.

Mazkur holatlarni bartaraf qilish yuzasidan 1465 ta taqdimnoma, 108 ta ogohnoma, ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan 1635 ta va jinoyi javobgarlikka tortish yuzasidan 9 ta taklif, shuningdek, sudlarga 933 ta ariza kiritilgan.

Sessiyada Samarqand shahridagi Imom Moturidiy majmuasini rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va infratuzilmani yaxshilash orqali yirik ziyorat markazini barpo etish maqsadida hududdagi 220 ta hamda Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasidagi Mahdumi A'zam majmuasida rekon-

struksiya ishlari olib borilishi munosabati bilan 5 ta turar va noturar joy obyektlari yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish yuzasidan taqdimot ma'qulandi.



## QADRIYATLARING BOQIY BO'LSIN, NAVRO'Z!

**Samarqandda Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlanmoqda. Viloyatimizning asosiy bayram tadbirlari kecha shahardagi Alisher Navoiy nomli markaziy istirohat bog'ida xalq sayli tarzida o'tkazildi. Saylda mahallalar, ta'lim va tibbiyot muassasalari, korxon va tashkilotlar vakillari o'z ko'rgazmalari bilan ishtirok etdi. Bir tomonda dorbozlar, bir tomonda sport musobaqalari, yana bir tomonda folklor jamoalarining chiqishlari...**

### SAHNADA – SURXON BAXSHILARI



Har bir tashkilot o'ziga tegishli hududda sahna o'rnatib, turli tomoshalar, konsert dasturlarini namoyish etdi. Bog'dagi katta sahnalarning birida surxondaryolik baxshilar milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan holda termalar aytishdi.

- Do'mbira chertyapmiz, chanqovuz chalyapmiz, kuylarimizga zamonaviy musiqa asoblarining tovushi qo'shilyapti, - deydi surxondaryolik Samandar baxshi. - Sayl qatnashchilarining atrofimizni o'rab olishi bizga ilhom bag'ishlayapti. Ustozlarimiz dostonlaridan parchalar kuylayapmiz. Samarqandga, ko'klamga bag'ishlangan termalarni aytayapmiz.

### BAYRAM XORIJLIKLARINI HAYRATDA QOLDIRDI

Navro'z saylida xorijlik mehmonlarni ham uchratdik. Ular har bir ko'rgazmani hayajon va hayrat bilan kuzatayotgani yuz-ko'zlaridan sezilib turardi.

- Bugun o'zbek xalqining milliy bayrami – Navro'zda ilk bor ishtirok etyapman, - deydi fransiyalik sayyoh Florans Beko'. - Milliy o'yinlarini, dorbozlarning chiqishlarini tomosha qilib, baxshilar termalarini, kelin salom va laparlarni eshitib juda lol qoldim. Bu haqida Fransiyaga borib, vatandoshlarimga gapirib beraman.

### SAYLDA SUMALAK TARQATILDI

Istirohat bog'iga kiraverishda tibbiyot xodimlari tomonidan doshqozonda sumalak, palov va boshqa milliy taomlar tayyorlanib, mehmonlarga



tarqatildi. - Navro'zni milliy taomlarsiz, ayniqsa, sumalaksiz tasavvur qilib bo'lmaydi, - deydi viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi hamshirasi Gulmira Jiyanova. - Bugungi xalq saylida biz tibbiyot xodimlari doshqozonlarda sumalak va osh tayyorladik. Bu milliy taomlarni tadbir ishtirokchilariga ulashyapmiz.

### GASTRONOMIK FESTIVAL

Alisher Navoiy ko'chasida gastronomik festival bo'lib o'tdi. Unda 20 ga yaqin samarqandlik oshpazlar kabob, palov va halisa taomlarini tayyorlash bo'yicha o'z mahoratlarini ko'rsatdi. Navro'z bayrami Ramazon oyida nishonlanayotgani sababli festival ko'rgazma shaklida tashkil etildi. Tayyorlangan taomlar, asosan, maxsus idishlarga solinib, sayl ishtirokchilariga iftorlik uchun tarqatildi.



### VILOYAT RAHBARI SAMARQANDLIKLARINI QUTLADI

"Mo'jiza" amfiteatrida konsert dasturi namoyish etildi. Unda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirok etib, tadbir ishtirokchilari va viloyat ahlini bayram bilan qutladi.

- Bu bayram hamma davrda ham aholi tomonidan chinakam milliy qadriyat sifatida e'zozlangan, - dedi viloyat rahbari. - Bu yilgi Navro'z muborak Ramazon oyiga to'g'ri kelgani xalqimiz o'rtasidagi mehr-oqibatning yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qilmoqda. Viloyatimiz aqli bu yilgi Navro'zni xursandchilik bilan qarshi olyapti. Xususan, yaqinda Prezidentimizning dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri bo'lgan Fransiyaga tashrifi chog'ida – Parij ko'chalaridan

biriga Samarqand nomining berilishi biz uchun sharafli voqea bo'ldi. Sharqona yangi yil barchamiz uchun, viloyatimiz uchun qut-barakali, omadli yil bo'lishini tilayman!

### YANGI MASSIVDA YANGI OBYEKTLAR

Navro'z bayrami tadbirlari davomida Samarqand shahridagi 1-tug'ruq majmuasining Qorasuv maskanida bunyod etilgan yangi binosi foydalanishga topshirildi. 200 o'ringa mo'ljallangan yangi inshootda ayollarga sifati tibbiy xizmat ko'rsatish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan.



Maskanda yana bir inshoot – 82-umumiy o'rta ta'lim maktabining ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi. Tadbir avvalida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida maktab hovlisiga daraxt ko'chatlari o'tqazildi.



Shodiyona mahallasida 1,2 gektar maydonda bunyod etilgan maktab 1680 o'rinli bo'lib, qurilish uchun 37 milliard 100 million so'm mablag' sarflangan.

- Qorasuvda yangi ko'p qavatli uylar qurilishi bilan hududda aholi soni yil sayin oshib bormoqda, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamov. - Shuning uchun hozirda bu yerda yana bitta maktab qurilmoqda va u yangi o'quv yilida foydalanishga topshirilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 1100 o'rinli xususiy maktab tashkil etilmoqda. Kelgusi yilda yana bitta maktab qurish rejalashtirilgan.

Navro'z bayrami tantanalari shahar va qishloqlarimizda davom etmoqda.

To'liqin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV,  
Fazliddin RO'ZIBOYEV,  
"Zarafshon" muxbirlari.

## TELEFON

“TUZOQ” laridan  
ogohmisiz?

Bugun qo'l telefoni bo'lmagan insonni topish amrimahol. U nafaqat aloqa vositasi, balki uy, ko'cha va ishdagi doimiy hamrohimiz, ko'makchimizga aylangan. Biroq keyingi vaqtda firibgarlar ana shu vosita orqali bizni chuv tushirishga harakat qilayotganligi ham haqiqat. Anglaganingizdek, gap kiberjinoatlar haqida.



Tasavvur qiling, qo'l telefoningizga noma'lum raqamdan qo'ng'iroq bo'ldi. Go'shakning narigi tomonidagi odam o'zini bank, ichki ishlar yoki boshqa mas'ul idora xodimi sifatida tanishtirib, sizni ehtimoliy firibgarlikdan himoya qilmoqchiligini, buning uchun esa shaxsiy ma'lumotlaringizni berishingiz kerakligini aytdi. Sizning keyingi harakatingiz qanday bo'ladi? Albatta, huquqiy savodxon odam bu firibgarlik ekanligini biladi va shaxsini tasdiqlash imkonini bo'lmagan odamga shaxsiy ma'lumotlarini bermaydi. Lekin boshqalar-chi? Afsuski, amaliyot ko'plab fuqarolarimiz ayni tuzoqqa ilinib, moliyaviy muammolarni girdobida qolayotganini ko'rsatmoqda.

"Hojatbaror" bilan gaplashding, suhbatning cho'zildi, demak, sen tuzoqning ichidasan. U bilan hamkorlikka rozi bo'lding va so'rgan ma'lumotlarini berding – tuzoqqa tushding. Undan chiqish esa ancha murakkab. Sen endi nomingdan bo'ladigan keyingi ishlarga to'sqinlik qila olmasan. Ular hisobingdagi barcha pullarni yechib olishi, nomingga kredit rasmiylashtirishi, eng yomonini, seni nomingdan yaqinlaringni aldab, ularni ham o'z tuzog'iga tushirishi mumkin. Balki bularning barchasi amalga oshiriladi.

Xo'sh, bunday vaziyatga tushib qolmaslik uchun nima qilish zarur? Bugun ko'pchilik notanish raqamlardan bo'ladigan qo'ng'iroqlarga javob

berishdan tiyilishga harakat qilayapti. Balki bu ham to'g'ridir. Lekin jinoyatchilar, albatta, siz bilan aloqaqa chiqishning yangi usullarini o'yab topishadi va topmoqda. Shunday ekan, muammodan berkinish doim ham kutilgan natijani bermaydi. Biz unga qarshi turishni o'rganishimiz kerak. Buning eng muhim sharti esa ogohlik.

Ishni o'z shaxsiy ma'lumotlaringizni ishonchli himoya qilishdan boshlang. Ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlaringiz uchun turli va murakkab parollar yaratib. Parolni muqimlashtirish uchun harflar, raqamlar va belgilarni birlashtiring. Sahifangiz yoki bankdagi hisobingizga kirish uchun qo'shimcha tasdiqlash qadami qo'shing (masalan, SMS kod yoki autentifikatsiya vositasi). Qo'l telefoningizdagi operatsion tizim, brauzer va boshqa dasturlarni yangilab turing, kibexavflardan himoyalani uchun yangilamalarni o'rnating. Noma'lum elektron pochtdan kelgan xabarlardagi havola va fayllarni ochmang.

Aytish joizki, agar siz firibgarlarga shaxsiy ma'lumotlaringizni o'z qo'lingiz bilan bersangiz, bu himoya usullari befoyda hisoblanadi. Shunday ekan, ogoh bo'ling va yaqinlaringizni ham shunga chaqiring!

**Ilhom BOTIROV,**  
xalq deputatlaril viloyat Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi a'zosi.

Inson dunyoga kelibdiki, baxtga intilib yashaydi. Saodatli bo'lib hayot kechirishni orzu qiladi. Unga yetishish yo'llarini izlaydi. Albatta, bunga o'z-o'zidan erishilmaydi. Xalqimiz azaldan baxt deganda tinchlik, xotirjamlik, sihat-salamatlik, farzandlar kamoli, el-yurt oldida yuzi yorug'lik kabilarni asosiy mezon sifatida bilgan.

Hazrat Alisher Navoiy shahzoda Badi-uzzamonga yozgan maktublaridan birida shunday hikmatomuz fikrlarni bayon qiladi: "Odamning murod-maqsadi bo'lmasa, balolardan omon qolmaydi. Ammo har kishining murodi ko'proq bo'lsa, Haq taolo amriga itoati ham bo'ladi". Shunday ekan, har birimiz o'z maqsadimizni aniq belgilashimiz, ogoh bo'lishimiz, Vatani, ota-ona, qarindosh-urug', farzandlar, xalq, el-yurt oldidagi mas'uliyatimiz va burchimizni anglagan holda, bunyodkorlik hissi bilan yashashimiz va shu orqali barcha ezgu maqsad va niyatlarimizga erishishimiz mumkin.

O'zini shu Vatanning farzandi deb bilgan insonlar nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki ota-onasi va farzandi bilan muloqotda yoki aka-ukalari suhbatida ham dunyoda yuz berayotgan notinchliklar, taloto'lardan birini ogoh etib turmog'i kerak. Shuningdek, xunreziqlarning ortida turgan kuchlar hamda ularning g'arazli maqsadlari mohiyatini ochib berishi, mamlakatimizdagi yutuqlar, bunyodkorliklar, tinchlik va barqarorlikni saqlash borasidagi amaliy ishlar va vazifalar haqida mulohaza yuritishi davor.

Bugun hayotimiz osoyishta, ertangi kunimizga ishonchimiz katta. Biroq buning o'zi hayotimiz va tinchligimiz, ertangi kunimiz, ko'zlagan maqsadlarimiz, erishishimiz lozim bo'lgan marralar uchun yetarli emas. Bugungi mafkuraviy xurujlar, "ommaviy madaniyat" tahdidi davrida biror daqiqqa ham loqayd va befarq bo'lmashimiz zarur. Hamisha ogoh va hushyor bo'lgan holda tinchligimizni ko'z qorachig'idek asrashimiz, yoshlarimiz ongini yot g'oyalardan himoya qilmog'imiz, maqsad va muddaolarimizni aniq belgilab olmog'imiz zarur.

Afsuski, hali-hamon boqimandalik

Shukurdan qochib,  
kamehilik qidirishga tushdik

kayfiyatiga berilgan, "davlat menga hamma narsani qilib berishi kerak", degan qarashda yashayotgan odamlar borligiga ko'p guvoh bo'lyapmiz. Ular doimiy o'qish, hunar o'rganish o'rniga davlatning yordamiga o'rganib qolgan, tashabbus ko'rsatishdan yiroq.

Tajribadan kelib chiqib aytish kerakki, yaxshi yashash uchun eng avvalo, harakat qilish, boqimandalik kayfiyatidan voz kechib, mehnatsiz hech narsaga erishib bo'lmashini tushunish lozim. Kambag'allikni faqat davlat ko'magi bilan bartaraf etib bo'lmaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asrning 80-yillarida Xitoyda aholining yarmidan ko'pi kambag'al bo'lgan. Ya'ni, odamlarning topgan pulli faqat oziq-ovqatiga yetgan. Oradan yigirma yil o'tib, aniqrog'i, 2021-yilda Xitoy dunyo mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib kambag'allik ustidan to'liq g'alaba qozonganini e'lon qildi.

Xo'sh, qanday qilib tarixan qisqa fursat ichida bunday mo'jiza yuz berdi? Olimlarning ta'kidlashicha, Xitoyda birinchi navbatda, xususiy sektorga, ya'ni tadbirkorlarga ustuvorlik berilgan. Davlat kompaniyalari soni keskin kamaytirilib, xususiy lashtirilgan. Natijada aholining bandligi hamda davlatning barqaror iqtisodiy o'sishiga hisilgan.

Buning barchasiga Xitoy xalqining mehnati bilan erishilgan. Bu davlatda bo'lib kelgan bir kishi bilan suhbatlashganida aholining mehnatkashligini davlat tomonidan belgilangan qonun hamda talablarga qat'iy amal qilishi, intilish va o'z ustida ishlashga bo'lgan



harakatini ko'rib hayratlanganini bildirdi.

Xo'sh, bugun nega davlat barcha masalalar yechimini mahallaga tushiryapti? Javobi oddiy: mahalla kimning qanday sharoitda yashayotganini juda yaxshi biladi, demak, odamlar muammosi bilan o'zi qolib ketmasligi kerak.

Nega davlat organlari, rahbarlar mahallalarda xonadonma-xonadon yurib, real holatni

Maqsad bitta: bugun odamlar qaysidir davlat organiga kelib, muammosini, dardini aytishini kutib o'tiradigan vaqt emas.

Shunga yarasha odamlar ham tashabbus ko'rsatishi, yangi-yangi g'oyalarni o'rta qo'yishi, islohotlar jarayoniga daxldorlik hissi bilan yashashi zarur. Aslida, bugun kambag'allikni qisqartirishda odamlardan ko'p narsa talab qilinayotgani yo'q. Tashabbus ko'rsatish, berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish kerak, xolos.

Afsuski, ko'pchiligimiz qilinayotgan ishlarning yaxshi tomoni qolib, kamchiliklarni qidirishga o'rganib qolganmiz.

Bugun harakat qilish, bilimaganini o'rganish vaqti. Davlat buning uchun imtiyoz ham, mablag' ham beryapti, ilm o'rganish uchun barcha sharoit bor. Shunchaki befarq bo'lmamak, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanmasak, uyimiz, ko'chamiz, mahallamiz obodligiga imkon qadar hissa qo'shsak, tomorqani bo'sh qo'yimasak, har bir ishga uyg'ok fikr, teran tafakkur bilan yondashsak bas.

Matluba RABBIMOVA.

3 OYDA 4 TA XIZMAT  
TEKSHIRUVI VA 4 TA  
INTIZOMIY JAZO

Viloyat bojxona boshqarmasida viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari Sarvar Bozorov ishtirokida tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida yig'ilish o'tkazildi.

Ma'lumotga ko'ra, so'nggi ikki yilda bojxona idoralari faoliyatida katta islohotlar amalga oshirilib, sohada 23 ta yangi axborot tizimi, 14 ta yangi elektron xizmat va 9 ta yangi mobil ilova joriy etildi. Bu esa o'z navbatida bojxonachilar zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi.

Tadbirda viloyat bojxona boshqarmasi tomonidan joriy yilning o'tgan davrida xodimlar o'rtasida korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish maqsadida o'tkazilgan 4 ta xizmat tekshiruv natijalari ma'lum qilindi. Unga asosan 4 nafar xodimga intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan.

## SIFATI NOMA'LUM ICHIMLIKLAR USHLAB QOLINDI

"Kontrafaktsiz oy" targ'ibot oyligi yakunlanmoqda. Bu davrda bojxona xodimlari huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikda joylarda iste'molga yaroqsiz va sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar o'tkazildi.

Jumladan, "Samarqand" tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postida xorijdan olib kelingan alkogolsiz ichimliklar bojxona ko'rigidan o'tkazilganda, hujjatlarda ko'rsatilmagan qiymati 62 million so'mlik 6240 dona maxsus idishga joylashtirilgan sifati noaniq ichimliklar aniqlandi.



## 3 MILLIARD SO'M QO'SHIMCHA BOJ HISOBLANDI

Joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida viloyat bojxona boshqarmasi tomonidan 354 ta qonunbuzarlik aniqlanib, 7 milliard 854,1 million so'mlik noqonuniy tovarlar ushlab qolingan.

Aniqlangan huquqbuzarlik holatlari yuzasidan 3 milliard 125,3 million so'm bojxona to'lovlari hisoblangan.

O'tgan yilga nisbatan holatlar soni 97 taga oshgan bo'lsa, tovarlar qiymati 517 million so'mga kamaygan.

Viloyat bojxona boshqarmasi axborot xizmati.

## O'QITUVCHILARI 1000 DOLLARGA TENG OYLIK OLAYOTGAN MAKTAB

Payariqdagi 53-umumiy o'rta ta'lim maktabi tuman markazidan ancha olisda, Kattasaydov qishlog'ida joylashgan. Ammo shaharlardagi ayrim eng yaxshi ta'lim muassasalaridan qolishmaydi.

## BIRINCHILAR QATORIDA

Yaratilgan sharoit va undan unumli foydalanayotgan o'qituvchilar hamda o'quvchilarning sa'y-harakati natijasida maktab bir necha yildirki, reyting ko'rsatkichlari bo'yicha tumanda birinchi qatoridan o'rin olib kelyapti.

Bundan 5-6 yil ilgari binolarimiz juda ko'rimsiz ahvolda edi, - deydi maktab direktori o'rinbosari Komil Nizomov. - 2019-yilda maktab homiylik asosida qayta qurilib, zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Bugungi kunda 570 o'quvchiga 48 nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berib kelyapti. Ustozlarning qariyb 50 foizi oliy toifali. 10 nafar turli xalqaro va milliy sertifikatlariga ega bo'lib, har biri ming dollarga teng oylik oladi.

## O'QISHGA KIRISH KO'RSATKICHI 100 FOIZ

3 yildan beri maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga qamrov ko'rsatkichi 100 foizni tashkil etyapti.

- Jismoniy tarbiya o'qituvchisidan, ham bir sinfga rahbarlik qilaman, - deydi Muhammad Ochilov. - Men rahbarlik qilgan sinf o'quvchilari bundan ikki yil ilgari maktabni muvaffaqiyatli tamomladi. 25 nafar bitiruvchining 24 nafari davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi. Bir nafari esa xususiy oliy o'quv yurtida tahsil olaypti. Ayni paytda 7-sinf o'quvchilari rahbarlik qilayapman. Ularning barchasi nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishni maqsad qilgan. Bu yo'lda ular qo'limdan kelgancha ko'magimni, maslahatimni ayamayman.



## QO'SHIMCHA TO'GARAKLAR MUTLAQO BEPUL

Ta'lim muassasasida darslar bir navbatda tashkil etilib, o'quvchilar kunning ikkinchi yarmida qo'shimcha to'garaklarga jalb etiladi.

- Ham ota-ona, ham ustoz sifatida maktabdagi dars jarayonlarini kuzatib boraman, - deydi Muhammad Ochilov. - O'quvchilarning aksariyati soat 18:00 gacha maktabda bo'ladi. Ular shu yerda, to'garaklarda uyga vazifani bajarib ketadi, ham turli sertifikatlar olish, oliy o'quv yurtiga kirish uchun tayyorgarlik ko'radi. Qo'shimcha to'garaklar malakali ustozlar tomonidan beminnat o'tiladi. Nega bepul? Ustozlar avvalo, o'z ustida ishlashligi, qolaversa, o'quvchilarining muvaffaqiyatga erishayotganligi uchun ham beriladigan qo'shimcha ustama mablag' hisobidan 1000 dollarga teng oylik oladi. Shuning uchun maktabimizdagi har bir o'qituvchi vijdonan mehnat qiladi. Yaqindagina ish boshlagan,

yosh, shijoatli o'qituvchilarimiz bor. Ular ham maktabdagi tajribali ustozlar izidan boryapti.

## O'QITUVCHILAR TANLOV ASOSIDA QABUL QILINADI

Maktab zamonaviy binolarga ega bo'lgandan keyin ta'lim sifatini ham shunga mos qilish uchun har bir o'qituvchi sinovdan o'tkazilib, ishga qabul qilindi. Jamoa deyarli yangilandi.

- Avvalgi jamoadan bor-yo'g'i 3 kishi qoldi, - deydi maktab direktori o'rinbosari K.Nizomov. - Sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan uyush, bilimli, tashabbuskor o'qituvchilar ish boshladi. Shuningdek, o'quvchilarimiz har chorakda maxsus test sinovlaridan o'tkaziladi. Natijaga qarab, ularni "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratamiz. Yaxshi o'zlashtirayotganlarni rag'batlantiramiz, orqada qolayotganlarga alohida e'tibor qaratib, qo'shimcha mashg'ulotlar o'tamiz. Ularning ko'rsatayotgan natijalariga qarab, ustozlari ham baholalanadi. Shuningdek, har bir sinfonada tasvir, ovoz yozib oluvchi kameralar o'rnatilgan. Bu ham ta'lim sifat va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti.

## SHOGIRD USTOZDAN O'TMASA...

Maktabda milliy va xalqaro sertifikatlariga ega bo'layotgan o'qituvchilar safi yildan-yilga kengayib boryapti. Ularning biri ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Sitorabonu O'roqboevdir.

- Shu maktabda dars berayotganimdan faxrlanaman, - deydi u. - O'quvchilarimiz bilimga chanqoq. Hatto ustozlardan qolishmaslikka, turli yuqori darajali sertifikatlarni qo'lga kiritishga harakat qilayotgan shogirdlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Avvalo, o'qituvchilar o'zaro, qolaversa, ota-onalar bilan hamkorligimiz yaxshi yo'lga qo'yilgan va bu o'z natijasini ko'rsatyapti. O'quvchilarni qiziqishga qarab, to'garaklarga jalb qilamiz. Men "Yosh adabiyotshunoslar" to'garagiga rahbarlik

qilaman. Unda 20 nafarga yaqin o'quvchi qatnashadi. Shogirdlarimning boshqa to'garaklarda qay darajada qatnashayotganini hamkasblarimdan so'rab turaman. Uda bo'sh vaqti qanday o'tayotganligi haqida ularning ota-onalari xabar berib turadi.

## "DUGONALARI YO'Q O'QUVCHI"

10-sinf o'quvchisi, "Yosh adabiyotshunoslar" to'garagi a'zosi Nigina Bo'ltakova tomonidan yozilgan bir hikoya ana shunday nomlanadi. Bosh qahramon bo'lgan o'quvchi-qiz dugonalari bilan ba'zida ko'ngilochar tadbirlarga, sayr qilish uchun istirohat bog'lariga, turli tamaddixonalariga bora olmagan uchun kamsitiladi. Shunda u maishatparast dugonalaridan voz kechib, bo'sh vaqtini qo'shimcha to'garaklarda bilim olishga sarflaydi. Natijada sinfdosh dugonalari orasida yolg'iz o'zi talaba bo'lish baxtiga muyaassar bo'ladi.

Maktabda ijodkor o'quvchilarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Vaqti-vaqti bilan taniqli shoir va yozuvchilar taklif etilib, o'quvchilar uchun mahorat darslari tashkil etiladi.

- Ustozimiz Sitorabonu O'roqboeva to'garak mashg'ulotlarida bizga adabiyot nazariyasi, shoir va yozuvchilar hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar beradi, - deydi N.Bo'ltakova. - Mashg'ulotlar davomida o'qigan kitoblarimizni, yozgan asarlarimizni muhokama qilamiz. She'r va hikoya yozish sirlarini o'rganamiz. Bu to'garakda qalamimiz charxlarni, ham oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Shu qishloq maktabida ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlar orasida nufuzli tanlov g'oliblari, sport chempionlari bor. O'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida turli klublar faoliyat olib boradi. Xullas, bu maktabni boshqa ayrim ta'lim muassasalariga o'rnak qilib ko'rsata arziydi.

To'liq SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

G'iyosiddin Jamshid Samarqanddan Koshonga, otasiga yozgan maktubida Mirzo Ulug'bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta'riflaydi: "Allohga va uning ne'matlariga shukronalar bo'lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori, islom podshohi donishmand kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Haqiqat shuki, avvalo, u kishim Qur'oni karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsilarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini aqlida saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar. Mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar".

Ulug'bek ilmga qiziqqanligidan maktab va madrasalar barpo qildi. Bu juda uzoqni ko'zlab qilingan qaror bo'lib, uning Movarounnahrni musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirmoqchi ekanligidan dalolat beradi. U barpo etgan Samarqand madrasasi va rasadxonasi na-faqat Sharq madaniyati va fani, balki Yevropa sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek an'anaviy islom ruhi-da tarbiyalangan, umri va ijodi davomida unga amal qilgan. Masalan, koinot jismlarini o'rganar ekan, astronom sifatida bu jismlarning joylashishini va vaqtni to'g'ri hisoblashni o'z oldiga maqsad qildi.

O'sha paytlarda osmon jismlarini o'rganish diniy qarashlarga zid emas edi. Chunki bunday o'rganish ibodat vaqtini, kun chiqish va botish vaqtini aniqlashni oldindan bilish uchun

## "MANTIQ MA'NOLARINING BAYONIDAN XABARDORLAR"

muhim edi. Shuningdek, o'z boshlanishini aniqlash, ekin ekish muddatlarini bilish, hosilni yig'ishtirib olish, o'z o'rini aniqlash va kerakli tomonga adashmay yo'l topib borish uchun osmon jismlari ilmidan xabardor bo'lish lozim edi.

Olimning ilmiy tadqiqotlari o'z zamoni astronomiyasining so'nggi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan ilmiy xulosalar sifatida katta ma'rifiy-siyosiy ahamiyat kasb etdi. U jahonga mashhur falakiyotchi olim bo'lib shakllanishi barobarida, o'zi yaratgan madrasai oliya va rasadxonada didaktika (ta'lim nazariyasi)ga asos soldi.

Samarqandning markazida bunyod etgan madrasai oliyada diniy fanlar bilan bir qatorda astronomiya, matematika, metafizika, geografiya, tarix kabi fanlar bo'yicha ta'lim berildi. Madrasada tahsil oluvchilar Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning astronomik jadvali ("Zij"), "Al-Jabr val-muqobala", Abu Rayhon Beruniyning astronomiyaga bag'ishlangan "Ma'sud Qonuni", Ahmad Farg'oniyning "Falakkiyot asoslari" kitoblaridan foydalandi.

Ulug'bek rasadxonasida talabalar



Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi ko'magida sayyoralar va yulduzlarning holatini kuzatishdi, astronomik va trigonometrik jadvallar tuzdilar.

**Narziqul SHODIYEV,**  
O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti professori.

## Oqillar hayoti — ibrat maktabi

Tafakkurli har bir kishi borki, avvalo, otanadan, muallimdan va o'zining kasbidan hurmat topganlardan ibrat olishga intiladi. Ijod borasida garchi yo'nalishlar to'g'ri kelmasada, ustozlardan o'rganiladigan jihatlar ko'p. Hatto kitob chiqarmasdan minglab shogirdlarga rahnamolik qilgan, ibrat bo'lgan ziyolilarni bilaman.

Taniqli ziyoli, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Mamatkul Hazratqulovdan qariyb qirq yildan buyon saboq olaman. Yo'q-yo'q, u kishi menga dars bermagan, o'qitmagani, davralarda ham maslahatu o'g'itlar bermagan, faqat mehri bildirib qo'ygan, xolos. Kamina esa imkon topganda u kishining har bir harakatidan, yozgan maqolasidan, odamlarga munosabatidan, teran fikrlashidan ibrat olishga intilganman. Biror masalada ikkilangan chog'imda telefon orqali savolimga ko'ngildagidek javob olganimda nihoyatda xursand bo'lganman.

Kamtarlikni odat qilgan bu inson bugungi kunda O'zbekistonda jurnalistlarining ulug' ustozlaridan biri. Kamtarligi shundaki, nufuzli idoralarda ishlaganida ham hamkasblari bilan samimiy munosa-

batda bo'lgan. Mavqeidan foydalanib, ayrimlarga o'xshab qo'sha-qo'sha kitoblarni chiqarmagan. Vaholanki, o'sha paytda ham hikoya va esselari ikki-uchta kitobga sig'masdi.

Ustoz bugun «Guliston» jurnali tahririyatida atrofiga samimiy, pokiza hamkasblarni to'plab mehnat qilmoqda. Men uchun qizig'i shundaki, u kishi hafsala topib, butun hayotidagi ibratli voqealarni o'zi kabi samimiy tarzda qog'ozga tushiryapti. Yaqinda «Oltin meros press» nashriyotida ustozning «Varaqsiz daftar» esse kitobi chop etildi. Uni o'qigan inson men yuqorida ta'kidlagan ajoyib xislatlarning natijalaridan bahramand bo'ladi. Siz ham ustozim bitiklari orqali hayotga nisbatan o'z nuqtai nazarigizni mustahkamlab olasiz, degan umiddaman.

F.TOSHEV.



## "Onam dedim, Vatanim dedim!"

"Ziyo ulashib" aksiyasi doirasida Samarqand pedagogika texnikumida taniqli shoira Erkatosh Shukurova bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda shoiraning o'zi o'qigan she'rlar ishtirokchilarga ko'tarinkilik bag'ishladi. Shuningdek, o'quvchi yoshlar shoiraning bahor, Vatani, ona, muhabbat, mehr haqidagi she'rlaridan yod aytishdi. Ijodiy uchrashuv Navro'z bayrami bilan bog'liq asriy udumlar haqidagi suhbat bilan davom etdi.

Muqaddas QODIROVA.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilyotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## O'ZBEKISTON TADBIRKORLIK, BIZNES VA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI XODIMLARI KASABA UYUSHMASI SAMARQAND VILOYATI BIRLASHGAN QO'MITASI

barcha yurtdoshlarimizni

# NAVRO'Z

umumxalq bayrami bilan muborakbod etadi.

2025-yil yanvar holatiga tarmoq kasaba uyushma kengashi 410 ta boshlang'ich tashkilotida 46 ming 409 nafar a'zoni birlashtirgan.

Hozirda barcha boshlang'ich tashkilotlarimizda hisobot saylov yig'ilishlari o'tkazilmoqda.



## "OQTOSHDON" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Oqtoshdon" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2025-yil 15-aprel kuni (haftaning seshanba kuni) soat 14:00 da Samarqand viloyati Narpay tumani J.Mirzayev ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan jamiyat majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Jamiyat aksiyadorlarining 2024-yil yakuni bo'yicha yillik umumiy yig'ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

UMUMIY YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidumi a'zolarini saylash.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash.
3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yilda bajarilgan ishlari bo'yicha hisoboti.
4. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti. Unda 2024-yilning asosiy natijalari hamda 2025-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida boshqaruv raisining hisoboti eshittiladi.
5. 2024-yil uchun jamiyatning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotini hamda xalqaro audit standartlariga muvofiq 2024-yil uchun o'tkazilgan audit tekshirish natijalarini ko'rib chiqish.
6. O'zbekiston Respublikasi Prizedentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq, jamiyat boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha o'rinbosarining 2024-yil yakunlari bo'yicha hisoboti.
7. Jamiyatda 2024-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot xulosasini ko'rib chiqish.
8. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha sof foydasini taqsimlash.
9. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari va kotibini saylash hamda ish haqini belgilash.
10. Jamiyat boshqaruv a'zolarini qayta saylash va ish haqini belgilash.
11. Jamiyatning 2025-yilgi moliyaviy faoliyatini

majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash.

12. "Korxonada xaridlar jarayonining shaffofligi, asosligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiqiligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to'g'risida"gi tashqi audit xulosasini tasdiqlash.

13. Jamiyatning yangi tahrirdagi nizomi va korporativ boshqaruv nizomlarini tasdiqlash.

14. Jamiyatning 2025-yil uchun mo'ljallangan "Bisnes rejasi"ni tasdiqlash.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2025-yil 15-aprel kuni soat 9:00 dan 11:00 ga qadar davom etadi.

Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini, ularning vakillari esa amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

Murojaat uchun telefonlar: +99866-240-10-74, +99891-524-50-51, +99894-280-95-28.

Elektron pochta manzili: oqtoshdon@mail.ru Hurmatli aksiyadorlar!

Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzilingizni (E-mail) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Djalalov Muyitdin Djalilovichga (2022-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 10-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Atamuradova Sayaraga (2014-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Rasulova Gulbaxor Gulyamovnaga (2022-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.  
Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

# Navro'z

## qachon paydo bo'lgan, sumalak-chi?

**Navro'z bayramining kelib chiqishi ibtidoiy tuzum odamlarining dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkazgan urf-odat va an'alariga borib taqaladi. Olimlarning fikriga ko'ra, Navro'zning shakllanishi zardushtiylik dinining paydo bo'lishigacha davom etgan va Xitoydan O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha vaqtlarda ham urush-janjallar to'xtatilgan, gina-kuduratlar kechirib yuborilgan.**

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ga ko'ra, bahor qaytishi yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini anglatgan. Navro'z atamasi Avestodan olingan bo'lib, yangi yorug'lik (kun) ma'nosini anglatgan. Olimlar tomonidan ahamoniylar davrida Navro'zga o'xshash bayram nishonlangani to'g'risida arxeologik topilmalarga tayanib olingan ma'lumotlar qayd etilgan. Ushbu davrga oid yozma manbalarda Navro'z atamasi uchramaydi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar zardushtiylikning e'tiqodida Navro'z bayrami muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Xususan, Samarqanddagi Ko'firqal'a yodgorligidan zardushtiylikning hosildorlik va suv ilohi hisoblangan Nana aks etgan yog'och pannoning topilishi fikrimiz dalildir. Arxeolog olim A.Berdimurodovning ta'kidlashicha, yog'och panon Sug'd hukmdorlarining shahar tashqarisidagi saroyida bo'lib, u joylashgan xona diniy va dunyoviy marosimlarni, jumladan, Navro'z va Mehrjon bayramlarini nishonlash uchun xizmat qilgan.

Bayram haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Umar Hayyomning "Navro'znomasi" asarlarida ham uchraydi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida Navro'z, mavsum va mehnat bilan bog'liq ma'lumot va namunalari keltirilgan.

Tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Navro'z kuni Buxoroning somonfursular darvozasi ichkarisida joylashgan Siyovush qabri boshida tong otishidan oldin har bir erkak kishi xo'roz so'yishi va bu odat uch ming yillar avval paydo bo'lganini yozgan. Qayd etilishicha, Buxoroda "Dehqonlar navro'zi" mart oyining 21-sanasi nishonlangan. Buxoro dehqonlari yil kunlari hisobini o'sha kundan boshlaganlar. Otashparastlarning navro'zi undan besh kun keyin kelgan.

Tabariyning "Tarixi Tabariy", Abu Rayhon Beruniyning "Tafhim", "Qonuni Mas'udiy", Mas'udiyning "Muruj az-zahab", Hofizi Abruning "Zubdat-at-tavorix", Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oni" asarlarida ham bayram va uning tarixiga oid qaydlar mavjud.

Islomning qabul qilinishi bilan qadimiy xalq bayrami qonuniylashtirildi: masjidda ibodatlar o'qildi, muqaddas joylarga tashrif buyurildi. Navro'z bayrami Abbosiylar xalifaligi davrida dam olish kuni sifatida belgilangan. Xalifalik zaiflashganidan keyin Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelgan mahalliy sulolalar, xususan, somoniylar va buyahiyalar davrida Navro'zning mavqei yanada oshdi. Ayniqsa, buyahiyalar sosoniylar davridagi ayrim odatlarni yana qaytaradi. Keyingi turkiy sulolalar va davlatlar hukm surgan davrlarda ham Navro'zni nishonlash davom etadi.

### SUMALAK TARIXI HAQIDA

Temuriylar davrida Navro'z eng ulug' va eng aziz, insonlarga cheksiz quvonch ulashuvchi bayram sifatida nishonlangan. Alisher Navoiy ham o'z asarlarida "Har tuning qadr o'lubon, har kunning o'sun Navro'z", deb bejiz bu kunni alohida yod etmagan.

Bahor va mehnat bayramining paydo bo'lishi haqidagi tarixiy ma'lumotlar davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchradi, shu kunlarga yetib kelgan. Barcha qadimgi afsonalarda esa bu umumxalq bayramining paydo bo'lishi ajdodlarimizning bahor fasli va ko'klamgi



dala ishlarining boshlanishiga aloqador udumlariga bog'lanadi. Navro'z 21-martdan 22-martga o'tar kechasi "Qozon to'la" udumi bilan boshlanadi. Shu oqshomda kechasi bilan ko'pchilik bo'lib sumalak va halim pishirilgan. Bu taomlar qozoni ertasiga ochilgan.

Navro'z "qozon to'ladi-gan", ya'ni qut-baraka tantana qiladigan xalq bayrami hisoblangan.

Navro'z bayramini sumalaksiz tasavvur qilish qiyin. Mazkur taomning kelib chiqishi haqida ham aniq manbalar mavjud emas. Xalq orasida mavjud rivoyatlarda sumalak Islom diniga bog'lanadi. Ammo ushbu taom qadimdan Turkiston, Eron va Kavkazorti xalqlarining bayramona taomi hisoblanib kelingan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit-turk" asarida "Suma - ivitilgan bug'doy nomi. Uni quritib tuyiladi. So'ng undan ugra oshi va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa uchun ham bu so'z qo'llaniladi", deb qayd etadi. Shunga ko'ra, "sumalak" - ivitilgan bug'doy yoki arpa ma'nosini anglatuvchi qadimgi turkiy kalom «suma»dan kelib chiqqan deyish mumkin.

### NAVRO'Z BAYRAMIDA NIMALAR QILINGAN?

Asrlar o'tishi bilan turli xalqlarda Navro'z bayramini o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan. Hozirgacha Markaziy Osiyoda Navro'zning rasmiy va norasmiy tarzda nishonlanishi xususida maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Tarixchi olim Azim Malikov o'z tadqiqotida Buxoro va Samarqandda Navro'zning nishonlanishi, Islom dinining yoyilishi va ruslar istilosidan keyingi transformatsiya jarayonlariga to'xtalib, Navro'zni O'rta Osiyoning madaniy jihatdan turli xil bo'lgan musulmon aholisi g'oyalari o'zida mujassam etgan bayram sifatida ta'riflagan. O'zbekiston hududida yashagan xalqlar bu kunni yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan kutib olganlar. Bayramning birinchi kuni qishloq joylarida bolalar to'p-to'p bo'lib xonadonlar eshigi oldida Navro'zga bag'ishlangan qo'shiqlar aytishgan. Xonadon egasi ularni sovg'a-salom va yeguliklar bilan siylagan. Bu udum hozir ham Samarqand va Jizzax viloyatlarining ayrim qishloqlarida saqlanib qolgan.

### SOVET DAVLATI TARIXIDA BIRINCHI MARTA OMMAVIY NAVRO'Z OZARBAYJONDA O'TKAZILGAN

1926-yilga kelib, Sovet hukumati tomonidan sotsialistik respublikalarda Navro'zning taqilinishi bilan uni nishonlash biroz su-saydi, ammo passiv ko'rinishda bo'lsa ham oilaviy davralarda marosimlar amalga oshirilib to'xtamagan. XX asrning 60-yillarida Sovet davlati tarixida "iliqlik davri" sabab ba'zi milliy urf-odatlariga ruxsat beriladi. 1967-yilda dastlab Ozarbojyonda birinchi marta ommaviy Navro'z sayli uyushtiriladi.

Hozir yurtimizda ham Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanib, 21-mart dam olish kuni deb e'lon qilingan. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi, konsert-tomoshalar uyushtiriladi. Yurtimiz tarixi davomida ko'plab hukmron sulolalar, dinlar va mafkuralar almashgan bo'lsa-da, xalqimiz Navro'z bayramini hamon nishonlab kelmoqda.

**Mahmudxon YUNUSOV,**  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori.



**Tabiat va inson uyg'unligi shunchalik mutanosibki, ba'zida hayratda qolasan, kishi. Garchi har yili fasllar almashinuvchi hech o'zgarmasa-da, goh kechikib, goh ertaroq unisi bunisiga o'rin berishi azaliy qoidaga aylangan bo'lsa-da, doim bu jarayonlardan hayratlanamiz, zavqlanamiz.**

Qorning butun borliqni oppoq ko'rpaga burkashi, tillarang xazonlarga qoplangan tabiat, mevalari g'arq pishib, butun zaminga o'tkir tig'larini qadagan quyosh nurlari bizni mudom go'zalliklardan, tabiat sirlaridan bahramand etadi. Ammo ular orasida bahor tarovati kishining jismu ruhiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Borliq bilan yagona, bir tanu bir jon ekaningizni shu faslda yanada ko'proq anglaysiz. Beixtiyor yaratuvchanlik fazilati jo'sh uradi insonda. Bir parcha yer bo'lsa ham unga nimadir ekib, parvarishlashni, daraxtlar barg yozishi-yu, gullashga kirishishini tomosha qilgiz, xullas, tabiat-la sirlashgiz keladi. Dehqonu yerdan tirikchilik qiladiganlar uchun bahor juda qadrlil, yoqimlil, ular bahorning nafasini fevral oxirlaridanoq his qilishadi. Qiziq, garchi dehqonchilik oson yumush bo'lmasa-da, uning mashaqqatlarini aynan bahor kirib kelishi bilan boshlansa-da, uni intiqlik bilan kutgan dehqon bobolarga ham hayron qolamiz ba'zan. Yerga mehrning, aynan bahorda ekin-tikin ishlariga kirishishning siri nimada ekan, deya o'ylab qolasan.

- Buning siri juda oddiy, yerga qancha mehr bersang, u senga yuz chandon ziyodasi bilan qaytaradi, - deydi Paxtachi tumanidagi fermer xo'jaligi rahbari, "Do'stlik" ordeni sohibasi Mahfuza Qayumova. - Hayotim davomida boshqa kasblarni ham qilib ko'rganman, ammo umrimning asosiy qismi yer bilan tillashishda o'tmoqda. Yer bizni nafaqat boqdi, balki hayotga qaytardi ham. Bundan bir necha o'n yillar avval shifokorlar menga og'ir dard tashxisini qo'yishdi. Bir yillik umringiz qolgan, deyishgandi. O'shanda hamma narsadan umidimni uzib, tushkunlikka tushib yurgan edim. O'zim o'tirgan daraxtlar, tomorqayu dalalarga nazar tashladim. Hatto bir yillik o'simliklar ham tabiatga qanchalik foyda keltiradi, insonning yashashi

uchun muhim ozuqa vazifasini o'tab beradi. Xayolimda faqat bir yil, bir yil... degan ikki so'z aylanaverdi. Umrimning qancha yillarini o'tkazib yubordim, bejiz o'tdimikan, nahot orzu-istaklarim shu bir yil ichida poyoniga yetsa, degan tushkun kayfiyat bilan soniyalarni o'tkazdim. Ha, bunday hukmdan keyin soniyalar haqida o'ylab qolarkan, kishi. Boshqa shifokorlar bilan uchrashdim, ularning daldasi sabab bo'ldimi, o'zimdagi kuch topdim. Fermer xo'jaligimni kengaytirdim, butun oilamiz bilan yerda ishladik, atrofdegilarni ham shunga undadik. Xo'jaligimiz ham, faoliyatimiz ham kengaydi. Ishonasizmi, bemorligim nafaqat unut bo'ldi, balki rostdan vujudimdan batamom ketdi. Tahlillar ham, shifokorlar ham buni tasdiqlashdi. Yer meni darddan xalos qildi. Undan minnatdor bo'lmay bo'ladimi, axir?!

*Yer tufayli, ekin-tikin-u uning jami yumushlari ortidan bemorligidan xalos bo'lganlar hikojalarini juda ko'p eshitganman. Shuning uchun, ularning aksari 70-80 yoshlarida ham mehnatdan, tomorqadan uzilishni istamaydi. Bir umr eng og'ir sharoitlarda, kolxozda dongdor brigadiri bo'lib ishlagan pastdarg'omlik 96 yoshli Salomat momoning shu yoshida ham ertalab turib, beda o'rishini ko'rganimda lol qolgandim. Tabiat bilan bir butunlikning siri yerda, yerga mehr va mehnatda ekanligiga o'shanda yana bir karra ishongandim.*

Rostdan ham, aynan bahor faslida tabiat insonga o'zgacha kuch, g'ayrat beradi. Go'yoki paytdan foydalanib qol, xayrli ishlarini bugun boshla, deb undayotgan-day bo'ladi. Bahorning har bir kuni, har bir soati g'animat, deya yotgan-day tuyulaveradi.

Bahor har birimizga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi, tomorqasi borlar uchun esa ayniqsa. Hali bayramlar boshlanmasidan avval yasharish, yashnatish fasli muborak bo'lsin, deymiz bir-birimizni qutlab. Yangilanish, yasharish pallasini Sizga ham muborak bo'lsin, aziz mushtariylar!  
**Gulruh MO'MINOVA.**



### BAHOR

Tongda qushlar mayin kuy chalar,  
Tinglar hatto tog'ning toshlari.  
Qiyg'os ungan nozik maysalar,  
Chashmalarning qiyiq qoshlari.

Novdaniy ko'z qaroqlarida  
Jilvalanar marjon, durlari.  
Gulkurtakning og'ushlarida  
Uyg'onadi bodom gullari.

Saxiy o'tob taftidan didxush,  
Boychechaklar otadi xandon.  
Gullar shilqim bolarlarga  
Sharbat tutib etadi mehmon.

Jujuqlarim tinglar jonhalak,  
Onam aytgan ertaklarini.  
Doshqozonda qaynar sumalak,  
Maysa iyar sharbatlarini.

Vujudimga sig'mas hayajon,  
Ta'rifingga axtaraman so'z.  
Ehtiroslar ila bir jahon  
Peshvoz chiqdim yo'lingga, Navro'z!.

Shoshib dala, o'ngirlar tomon  
Obi-hayot eltar har anhor.  
Zavq ulashding kelib dillarga,  
Xush kelibsan o'lkamga BAHOR!..  
**Shahridin UMIROV.**

### UMR OMONAT

Qo'sh ulug' kalomdan boshlanar ziyo,  
Salom ham alik, ham erur g'animat.  
Kim ham yashay olar turguncha dunyo,  
Umr omonatdur, umr omonat.

Yaxshi so'zdan ilon chiqar inidan,  
Yurakni timdalar dard va xiyonat.  
Mukofot, jazo ham keladi tildan,  
Umr omonatdur, umr omonat.

Boriga borlansa, yo'li bo'lar oydin,  
Kamtarlik - ziyonati, kabir - malomat.  
Tiniq suv oqadir pokiza soydin,  
Umr omonatdur, umr omonat.

Vatandan ayroga yo'q o'zga Vatan,  
Yurt bag'ri betimsol chaman va rohat.  
O'zga yurt o'zgardir, talpinma harchand,  
Umr omonatdur, umr omonat.

Elim de, ertam de, sog' aql ila,  
Onalar poyida sen istar jannat.  
Har kelar kuningga barakat so'ra,  
Umr omonatdur, umr omonat.

Suyundiq, umringni oqizma suvdek,  
Tiriklikning har bir lahvasi qimmat.  
Murodga yetkazar totuvlik, birlik,  
Umr omonatdur, umr omonat.  
**Suyundiq Mustafu NURATOIY.**



### EPIRGAMMALAR

### BAHOR

Yurakdan intiqib kutganlar  
Yetmas ba'zan yangi bahorga.  
Chin do'stlarga o'xshaydi ko'klam,  
Aylangay ko'z yoshi anhorga.

### KIBR

Boylilklarga liq to'la garchi,  
Maqtanmaydi tog' aslo qirga.  
Hovliqimaga pul tegsa magar,  
Miskin bilan o'tirmas sira.

### HAYRAT

Bu dunyo mo'jizasi goho  
aqling oladi,  
Ko'rib, siyatidan shuuring  
ham toladi:  
Yig'layotgan bolaga telefon  
bersa agar,  
Shu zahoti u go'dak tinchib,  
uxlab qoladi.  
**Nuriddin YAHYOYEV,**  
Ishtixon tumani.



**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida  
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438.  
14 446 nuxxada chop etildi. Buyurtma 139. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:  
soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:  
soat 19:00

**Navbatchesi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchesi:**

**A.BAROTOV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda